



Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-avgust)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalari tomonidan 10671,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 93,0% ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (95,2 %) ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 45,7 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda – 25,2 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 3,7 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 23,7 % ga o'sishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 135,9 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,3% ini tashkil etdi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalaridan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan shagʻal qazib olish - 44,0 % ga oʻsgan, shuningdek neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bogʻliq burgʻilash xizmatlari- 31,9 % ga, texnik oltingugurt qazib olish esa- 18,0 % ga pasaygan.





Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Texnik oltingugurt, tonna.	942,0	772,0	-170,0
Shag'al, tonna.	24807,0	35711,0	10904,0
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ilash xizmatlari, mln. so'm.	164260,4	111806,5	-52453,9



Ishlab chiqaradigan sanoat


2020- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10163,1 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,2 % ini tashkil etdi.





**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2019- yilning yanvar-avgust oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 1,8 % (1,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 59,4 % (58,5 %) va quyi texnologiyalisi - 38,7 % (39,6 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash maxsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi–48,8 % (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi–100,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi–20,0 % (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 120,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi–16,0 % (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,4 %), boshqa nometall mineral maxsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi –5,6 % (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,9 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020- yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 67,2 ming tonna mazut (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 27,0 % ga o'sgan), 61732 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (15,1 %), 553,6 ming tonna avtomobil benzini (10,3 %), 9079,1 tonna kalava ip (93,1 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Mazut, ming tonna	52,9	67,2	14,3
Un mahsuloti, tonna	53625,3	61732,0	8106,7
Avtomobil benzini, ming tonna	502,1	553,6	51,5
Aroq, ming. litr	880,5	878,0	-2,5
O'simlik yog'i (tozalangan), tonna	15467,4	12823,0	-2644,4


Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Paxta,tolasi, <i>tonna.</i>	44962,2	54159,6	9197,4
Paxta chigiti, <i>tonna.</i>	68529,8	88925,8	20396,0
Quyish uchun tayyor beton, <i>tonna.</i>	8225,7	21413,0	13187,3
Dizel yoqilg'isi, <i>ming t.</i>	498,1	402,0	-96,1
Qurilish uchun g'ishtlar , <i>ming dona.</i>	2401,0	1548,0	-853,0


Ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan) paxta tolasi 120,5 % ga, paxta chigiti 129,8 % ga, quyish uchun tayyor beton 2,6 marta ko'pga o'sishini kuzatish mumkin. Shuningdek dizel yoqilg'isi 80,7 % ni, qurilish uchun g'ishtlar 64,5 % ni, o'simlik yog'i (tozalangan) 82,9 % ni tashkil etib, ishlab chiqarish **sur'atlari** kamaygan.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



2019- yil,
% da



2020- yil,
% da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 300,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (2,8 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 23,7 % ga oshganligi kuzatildi.






Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln. kVt/s	3,3	4,3	1,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal.	543,0	521,4	-21,6



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 71,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	5423,7	5942,4	518,7
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	228,0	337,7	109,7

O'tgan yilning mos davriga nisbatan axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 48,1 % ga hamda oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 9,6 % ga oshganligi kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3901,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 3,7 % ga kamaygangan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 36,6 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi 63,1 % dan 60,7 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 2,0 % (2019- yil yanvar-avgust oylarida 1,9 %)ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumani 21,5 % (iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi 836,8 mlrd. so'm), Buxoro shahar 19,0 % (742,3 mlrd. so'm), Kogon tumani 10,5 % (409,2 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (96,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Kogon (108,6 %), Qorovulbozor (104,8 %), G'ijduvon (103,9 %), Romitan (101,2 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	3901,8	100,0	96,3
<i>Shaharlar va tumanlar:</i>			
Buxoro shahar	742,3	19,0	100,8
Kogon shahar	205,4	5,3	83,2
Olot tumani	85,9	2,2	95,1
Buxoro tumani	211,0	5,4	73,4
Vobkent tumani	201,8	5,2	75,0
G'ijduvon tumani	389,7	10,0	103,9
Kogon tumani	409,2	10,5	108,6
Qorako'l tumani	223,5	5,7	100,4
Qorovulbozor tumani	836,8	21,5	104,8
Peshko' tumani	79,0	2,0	85,7
Romitan tumani	156,4	4,0	101,2
Jondor tumani	189,1	4,8	81,8
Shofirkon tumani	171,7	4,4	99,9

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, 26,9 % ni, shuningdek, G'ijduvon tumani 11,1 % ni, Qorako'l tumani 10,4 % ni, Buxoro tumani esa 8,9% ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Buxoro shahri (112,9 %), Qorovulbozor tumani (108,6 %) hamda Kogon tumanida (108,5 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	1534,5	100,0	102,6
<i>Shaharlar va tumanlar:</i>			
Buxoro shahar	412,6	26,9	112,9
Kogon shahar	95,5	6,2	83,3
Olot tumani	41,9	2,7	102,3
Buxoro tumani	137,0	8,9	91,3
Vobkent tumani	83,9	5,5	101,6
G'ijduvon tumani	170,3	11,1	107,9
Kogon tumani	72,7	4,7	108,5
Qorako'l tumani	159,5	10,4	103,3
Qorovulbozor tumani	24,2	1,6	108,6
Peshko' tumani	48,8	3,2	97,8
Romitan tumani	71,9	4,7	104,2
Jondor tumani	120,4	7,9	94,9
Shofirkon tumani	95,8	6,2	101,5

Hududlar kesimida noziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 34,3 % ni, shuningdek, Kogon tumani 14,2 % ni, Buxoro shahri 13,9 % ni hamda G'ijduvon tumani 9,3% ni tashkil etdi.

Shuningdek, noziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Kogon (108,6 %), Qorovulbozor (104,7 %), G'ijduvon (101,0 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	2367,3	100,0	92,6
<i>Shaharlar va tumanlar:</i>			
Buxoro shahar	329,7	13,9	88,9
Kogon shahar	109,9	4,6	83,0
Olot tumani	44,0	1,9	89,2
Buxoro tumani	74,0	3,1	53,9
Vobkent tumani	117,9	5,0	63,2
G'ijduvon tumani	219,4	9,3	101,0
Kogon tumani	336,5	14,2	108,6
Qorako'l tumani	64,0	2,7	93,9
Qorovulbozor tumani	812,6	34,3	104,7
Peshko' tumani	30,2	1,3	71,3
Romitan tumani	84,5	3,6	98,8
Jondor tumani	68,7	2,9	65,8
Shofirkon tumani	75,9	3,2	97,8



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
tomonidansanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 717,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 6,7 % ni tashkil etdi.



**Buxoro viloyat hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	2020- yil yanvar-avgust mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Buxoro viloyati	10671,1	93,0
<i>Shaharlar va tumanlar:</i>		
Buxoro shahar	1248,0	98,1
Kogon shahar	459,2	103,1
Olot tumani	257,3	100,7
Buxoro tumani	431,4	101,5
Vobkent tumani	202,0	82,6
G'ijduvon tumani	739,6	113,5
Kogon tumani	534,6	101,6
Qorako'l tumani	333,5	101,5
Qorovulbozor tumani	5330,7	111,4
Peshko' tumani	169,4	91,1
Romitan tumani	292,2	93,2
Jondor tumani	381,7	94,1
Shofirkon tumani	291,5	101,7



Buxoro viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da


Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishini, Vobkent (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 82,6 %), Peshko' (91,1 %), Romitan (93,2 %), Jondor (94,1 %) tumanlarida hamda Buxoro shahrida (98,1 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Kogon (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan(108,6 %), Qorovulbozor (104,8 %), G'ijduvon (103,9 %) va Romitan (101,2 %) tumanlaridada sezilarli darajada oshdi.



Buxoro viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Qorovulbozor tumani (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 50,0 %i), Buxoro shahri (11,7 %) hamda G'ijduvon (6,9 %), Kogon (5,0 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Peshko' (1,6%) hamda Vobkent (1,9 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumanida (291294,9 ming so'm), Kogon shahrida (7503,2 ming so'm) va Kogon tumanida (6827,3 ming so'm) o'rtacha Viloyat darajasi ko'rsatkichidan (5 534,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarilishi 2023,6 ming so'm bo'lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 45724,4 ming so'mni, Kogon tumanida – 5226,0 ming so'mni, Kogon shahrida – 3356,2 ming so'mni, Buxoro shahrida 2645,6 ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
(2020- yil yanvar-avgust oylarida, ming so'm)

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
Buxoro viloyati	5534,2	2023,6
<i>Shaharlar va tumanlar:</i>		
Buxoro shahar	4447,6	2645,6
Kogon shahar	7503,2	3356,2
Olot tumani	2593,6	866,4
Buxoro tumani	2588,0	1266,0
Vobkent tumani	1445,4	1443,5
G'ijduvon tumani	2432,8	1282,0
Kogon tumani	6827,3	5226,0
Qorako'l tumani	2034,8	1364,0
Qorovulbozor tumani	291294,9	45724,4
Peshko' tumani	1379,7	643,2
Romitan tumani	2062,4	1103,5
Jondor tumani	2188,5	1084,1
Shofirkon tumani	1644,0	968,2



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2020- yil yanvar-avgust oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3461,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 32,4 % ni tashkil etdi.



Tuman va shaharlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Vobkent tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Kogon tumanida (98,6%) Shofirkon tumanida (85,4 %), G'ijduvon tumanida (67,2 %) kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Qorovulbozor (0,8 %), Olot (45,9 %) tumanlarida hamda Kogon shahrida (43,8 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2020- yil 1- sentyabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4024 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1163 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 28,9 % i) Buxoro shahriga, 507 tasi (12,6 %) G'ijduvon tumaniga, 325 tasi (8,1 %) Buxoro tumaniga, 320 tasi (8,0 %) Kogon tumaniga, 284 tasi (7,1 %) Jondor tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Yangi tashkil etilgan Korxonalar soni, birlikda

Faoliyat ko'rsatayotgan Korxonalar soni, birlikda



2020- yilning yanvar-avgust oylarida Viloyatda 669 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 124 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 18,5 %) Buxoro shahrida, 91 tasi (13,6 %) G'ijduvon tumanida, 58 tasi (8,7 %) Kogon tumanida, 52 tasi (7,8 %) Romitan tumanida tashkil etildi.

Sanoat statistikasi bo'limi

Tel.: (65) 220-83-06